

This is not registered version of TotalDocConverter

Abdulla akadaning "Tinch don" romanida bir masala ustida qattiq munozara bo'ldi.

Asarda, munozara ishtirokchilarining tili bilan aytganda, bitta "nozik" joy bor: qishloqda usta Qahorning nafasi o'tkir emish, - degan gap tarqab ketadi-yu, kasalga chalingan qiz-juvonlar uning hujrasiga serqatnov bo'lib qolishadi. Shu sababdan qishloqda har xil mish-mish gap tarqab, janjalga aylanadi va axir-oqibat usta Qahhor istiqomat qilib turgan joyidan ko'chishga majbur bo'ladi. Muhokama qatnashchilarining aksariyati bu epizod usta Qahhor obraziga putur yetkazadi, - degan bahonada Abdulla akadan uni asardan olib tashlashni iltimos qilishdi. Men asar chiqqandan keyin ham bir-muncha odamlar bu epizoddan norozi bo'lib yurganlarini, "Axir bu voqealar yoshlarimizga ibrat bo'lolmaydi-ku!" deganlarini eshitdim.

Bizning adabiy muhitimizda shu yo'sindagi gaplar ko'p bo'ladi. Nega? Masalaga bu tarzda yondashish realizm an'anasiga yot-ku? Ulkan realistik adabiyot bunaqa "nozik" voqealarni tasvirlashdan hech qachon "qochgan" emas.

Bittagina misol: M. Sholoxovning "Tinch don" romanida Aksinyani o'z otasi zo'rlaydi, Mitka Korshunov Natalyani ta'qib etadi, Darya qaynatasi Panteley Prokofevichga osiladi. Qalampir ta'mi keladigan bunaqa joylar romanda ancha-muncha bor...

Shubhasiz, "Tinch Don"ni olamga mashhur qilgan narsa bunaqa "yalang'och" joylar emas, lekin romanning bu joylarini olib tashlang-chi, asar, achchiq bo'lsa ham, bo'lakcha "maza" berib turgan bir ta'mdan, qalampir ta'midan mahrum bo'lmasmikan? Albatta, qalampir hammaga ham yoqavermaydi, biroq... nega endi bitta-ikkita me'dasi buzuq oshxo'rlarni deb, xushbo'y, serqalampir osh o'rniga, bo'tqa shovla yer ekanmiz?